

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**TURDIBEKOV MO‘MIN TO‘RAYEVICH**

**SHIMOLIY TOJIKISTON TOPONIMLARINING  
TARIXIY-LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2022**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc)  
on Philological Sciences**

**Oglavlenie avtoreferata doktora nauk (DSc)  
po filologicheskim naukam**

**Turdibekov Mo‘min To‘rayevich**

Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy-lingvistik  
xususiyatlari..... 3

**Turdibekov Mumin Turayevich**

Historical and linguistic features of toponyms of Northern Tajikistan ..... 33

**Турдибеков Мумин Тураевич**

Историко-лингвистические особенности топонимов  
Северного Таджикистана ..... 63

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati** List of published works

Список опубликованных работ ..... 67

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**TURDIBEKOV MO‘MIN TO‘RAYEVICH**

**SHIMOLIY TOJKISTON TOPONIMLARINING  
TARIXIY-LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2022**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.2.DSc/Fil.408 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining [www.tai.uz](http://www.tai.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** Mengliyev Baxtiyor Rajabovich,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Sobirov Abdulhay Shukurovich,  
filologiya fanlari doktori, professor

Yo'ldoshev Ibrohim Jo'rayevich,  
filologiya fanlari doktori, professor

Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "13" yanvar soat 10:00 majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (871) 233-36-50, faks: (871) 233-71-44; e-mail: [uztafi@academy.uz](mailto:uztafi@academy.uz).)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 700100, Toshkent shahri, ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58.)

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil "30" dekabr da tarqatildi.  
(2022-yil "30" dekabr da) 14 raqamli reestr bayonnomasi).

  
D.S. Xudayberganova  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

  
G'.M. Ismoilov  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, f.f.n.,  
katta ilmiy xodim

  
Sh.N. Ko'chimov  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, f.f.d.

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida joy nomlarini ifodalovchi onomastik birliklar va ularning ijtimoiy, tarixiy, lingvistik, sotsiolingvistik xususiyatlari masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Muayyan hududning maxsus to'planmagan, kam o'rganilgan toponimik birliklarini yig'ish, ularning leksik-semantik, etimologik xususiyatlari, nominativ, kommunikativ, uslubiy vazifalarini aniqlash, lingvokulturologik va kognitiv aspektini ilmiy tekshirish bugungi globallashuv jarayonida dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy aloqa va turistik munosabatlar jadal rivojlanayotgan bir sharoitda amaliy ahamiyat kasb etadi. Toponimlar til tarixi va taraqqiyotining turli davrlariga oid belgi-xususiyatlarni aks ettiruvchi, leksik tarkibning barqaror hamda o'zgaruvchan birligi sifatida qaraladi. Toponimik birliklar diaxronik jarayonlar haqidagi bilimlarni boyitish, tilshunoslikning tarixiy masalalari yechimiga xizmat qilish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Bu holat esa toponimlar yuzasidan bajariladigan tadqiqotlarning dolzarbligini ko'rsatib turadi.

Dunyo onomastikasida toponimik birliklarning lingvistik xususiyatlari bilan birga ekstralingvistik omillar hamkorligi masalasi doirasidagi tadqiqi keng ommalashmoqda. Uning tarkibida muayyan mahalliy hudud joy nomlarini ifodalovchi urbanonim, gidronim, oronim, oykonim, xoronim, nekronim kabi onomastikaning mustaqil turlari genezisini, etimologik, lingvistik xususiyatlarini mahalliy aholining milliy an'ana va qadriyatlarini, urf-odatlarini, turmush tarzi, e'tiqodiy dunyoqarashi, tarixiy-madaniy boyligi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlash, leksik-semantik xususiyatlarini, xalqning lisoniy, tarixiy, geografik, etnografik, diniy-mifologik qarashlari mujassamlashgan toponimlarning lingvogeografik, etnolingvistik, lingvistik, konseptual, paradigmatic, onomastik-grammatik belgilarini ochish soha oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda "bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy"<sup>1</sup> bo'lgan hozirgi bir sharoitda ishlab chiqilgan toponimik siyosat toponimika sohasini ilmiy-nazariy va amaliy yo'nalishlarda jiddiy rivojlantirishni ham talab etadi. Buning uchun joylarda tashkil qilingan toponimik komissiya va markazlashtirilgan toponimik xizmatlarga joy nomlarini aniqlash, saqlash, o'zgartirish yo'lida ularning ilmiy va amaliy jihatlarini puxta o'rgangan tadqiqotlar katta amaliy yordam bera oladi. Shu kabi talab va ehtiyojlar natijasida o'zbek tilshunosligida xalq tarixi, qadriyati, an'ana va urf-odatlarini o'zida to'liq ifodalovchi lisoniy birliklar – toponimlarni muayyan hudud misolida lingvistik tadqiq etish katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, qadimdan shakllangan va hozirda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish yo'lini bosib o'tayotgan Shimoliy

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Tojikiston toponimlarining leksik-semantik, onomastik-grammatik xususiyatlarini, kelib chiqish asoslarini lingvogeografik, etnolingvistik hamda lingvistik aspektda o'rganish ham ijtimoiy-madaniy, ma'naviy jihatdan ahamiyatli. Shu ma'noda, o'zbek toponimiyasi bilan chambarchas bog'langan Shimoliy Tojikiston toponimik birliklarining tarixiy-lingvistik, etimologik-onomastik tadqiqini yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 989-son "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi", 2020-yil 29-yanvardagi 40-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Onomastika, xususan, uning bir tarmog'i hisoblangan toponimlarning tarixiy-lisoniy, lug'aviy-ma'noviy, grammatik, paradigmatic va sintagmatik, etimologik-lingvistik xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, RFA Lingvistik tadqiqotlar instituti, RFA Dog'iston ilmiy markazining Til, adabiyot va san'at instituti, Ural federal universiteti; The University of Adelaide (Australia); University of California, Boston University (AQSh); University of Bordeaux (Fransiya); Peking University (XXR); Oxford University Language Centre (Angliya); Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston); shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida onomastik birliklarni o'rganish, ularda kechadigan eng muhim jarayonlarni tahlil qilish, tartibga solish va me'yorlashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan: toponimlarning geografik va tarixiy xususiyatlari: toponimning paydo bo'lishi, uning geografik obyekt bilan

---

<sup>2</sup> Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи cheloveknauka.com, dslib.net, reseachgate.net, bloomsbury.com, aims.fao.org, book.sumy.ua, www.utexas.edu, www.u-bordeaux.com, english.pku.edu.cn, www.lang.ox.ac.uk, www.kaznu.kz, www.navoiy-uni.uz ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

bog'liqligi dalillangan (AQSh, Harvard University, Keap University), toponimikaning siyosiy geografiyadagi lisoniy, pragmatik, lingvokulturologik ahamiyati aniqlangan (Jeneva, Universite de Genève), (Avstraliya, Macquarie University), til ta'limida toponimlarni milliy va madaniy qadriyat sifatida o'rganish asoslari ishlab chiqilgan (Rossiya Federasiyasi, Novgorod davlat universiteti), ingliz va rus tillari materiallari asosida tillararo makonda toponimlarning lingvokulturologik ahamiyati ochib berilgan (Rossiya Federasiyasi, Kamerovo davlat universiteti), toponimlarning etimologiyasi, semantikasi hamda turli mintaqa toponimlari tadqiq qilingan, Kapa Verde orollari toponimlarning lingvistik xususiyatlari o'rganilgan (Rossiya Federasiyasi, Rossiya xalqlar do'stligi universiteti), turkiy davlatlar hududidagi tarixiy va zamonaviy toponimlarning fonopragmatik, lingvokulturologik, sotsiologik-lingvistik xususiyatlari ochib berilgan (Turkiya, Marmara universiteti; Azerbayjon, Baku davlat universiteti, Qirg'iziston davlat universiteti, Qozog'iston davlat universiteti), O'zbekistonning turli hududlari toponimlari lingvistik, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy aspektlarda yoritilgan (O'zFA Til, adabiyot va folklor instituti, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, Guliston davlat universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti).

Dunyo tilshunosligida onomastik, xususan, toponimik birliklarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda: toponimik birliklarning shakllanishi va taraqqiyot manbalari asosida lug'aviy qatlamlari, nom yasalishi bilan bog'liq xususiyatlarini aniqlash, toponimlarning lisoniy tizimdagi funksional-semantik taraqqiyotini asoslash, ularning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari asosida sistemaviy tahlilini amalga oshirish, toponimik birliklarning shakllanishi va taraqqiyotida moddiy asos vazifasini bajaruvchi etnonimik, oykografik, gidrografik va orografik tushunchalarining ma'noviy, lingvistik, etimologik, strukturaviy tarkibi, funksional-uslubiy xususiyatlarini ochib berish kabilar.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida H.A.Smit, A.L.Dauzat, G.J.Kopley, G.V.Lemon kabilarning ilmiy izlanishlari toponimikaning fan sifatida shakllanishida alohida e'tirofga loyiq<sup>3</sup>.

Rus tilshunosligida A.V.Superanskaya, V.D.Belenkaya, A.A.Beletskiy, O.T.Molchanova, E.M.Murzaev, N.V.Podolskaya kabi olimlarning toponimikaning alohida va muhim masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarini alohida qayd qilish lozim<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> Smit A.H. English Place-Names Elements. – Cambridge, 1956. – 163 p.; Алберт Даузат. La Toponymie française. – Paris: Bibliothèque scientifique, Payot, 1960; Réimpression, 1971 – 168 p.; Copley G.J. Names and Places with a short dictionary of common or wellknown place-names. – London: Phoenix House Ltd., 1963. – 226 p.; Лемон Г.Б. English Etymology. – G.: Robinson, 1783. – 693 c.

<sup>4</sup> Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – 176 с.; Беленькая В.Д. Топонимы в составе лексической системы языка. – М., 1969. 166 с.; Белецкий А.А. Лексикология и теория языкознания (ономастика). – Киев, 1971. – 156 с.; Молчанова О.Т. Топонимический словарь Горного Алтая. – Горно-Алтайск, 1979. – 398 с.; Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. – 382 с.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – 188 с.

O'zbekiston toponimlarining leksik-grammatik, etimologik, dialektologik, leksikografik xususiyatlari yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilishi natijasida o'zbek toponimiyasining nazariy-amaliy asoslari vujudga keldi. Xususan, S.Qorayevning toponimika tarixi to'g'risidagi, H.Hasanov O'rta Osiyo joy nomlari tarixiga oid, T.Nafasovning Qashqadaryo viloyati toponimlari, Z.Do'simovning Xorazm toponimlari, Sh.Qodirovaning Toshkent mikrotoponimlari, T.Rahmatovning Samarqand toponimi etimologiyasi, J.Latipovning Marg'ilon shahri joy nomlari, L.Karimovanning o'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi, S.N.Nayimovning Buxoro viloyati oykonimlari, X.Xolmo'minovning Boysun mikrotoponimlari, B.O'rinboevning Jizzax va Samarqand viloyati toponimlarining izohi, A.Muhammadjonovning toponimlarning etimologik, tarixiy aspekti, E.Begmatovning o'zbek antroponimlari hamda toponimikasi, A.Otajonovanning Xorazm etnotoponimlari, N.Uluqovning gidronimlar, O.Begimovning oronimlar tadqiqiga bag'ishlangan maqola, monografiya va dissertatsiyalari katta ahamiyat kasb etadi<sup>5</sup>.

Shimoliy Tojikiston toponimlari, ularning shakllanish me'yorlari haqida tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy manbalarda turli sharh, talqin mazmunidagi bir qancha qaydlar XX asrgacha ham mavjud bo'lgan<sup>6</sup>. O'zbekiston toponimlariga bag'ishlangan ayrim lug'atlardagi Shimoliy Tojikiston hududi bilan bog'liq sanoqli toponimlarning izohlaridan tashqari jiddiy tadqiqot va lug'atlar yaratilmagan<sup>7</sup>.

Shu paytgacha Shimoliy Tojikiston toponimlarining lingvistik aspektidagi tadqiqi monografik tarzda amalga oshirilmagan. Tadqiqotimizda Shimoliy Tojikiston toponimlarining leksik-semantik, etimologik, lingvistik xususiyatlari bilan bog'liq masalalar ilk marta monografik tarzda tekshirildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan "O'zbek onomastikasining nazariy-amaliy masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

---

<sup>5</sup> Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1968. – 301 б.; КадYROVA Ш.М. Микротопонимы Ташкента: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 28 с.; Рахматов Т. Этимология топонима Самарканд // Советская тюркология. – Баку, 1973. – № 4. – С. 43-50; Латипов Ж. Марғилон шаҳри ва унинг атрофи топонимияси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1975. – 219 б.; Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982. – 96 б.; Найимов С.Н. Ойконимы Бухарской области: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 20 с.; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.; Холмўминов Х. Бойсун район микротопонимларининг лексик-семантик хусусиятлари / Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1988. – 73-75 б.; Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах, 1992. – 53 б.; Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изохи. – Самарқанд, 1997. – 202 б.; Муҳаммаджонов А. Жой номлари – тарихий манбадир / Илмий-амалий конференция докладлари тезислари. – Тошкент, 1994. – 15-17 б.; Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – 3-сон. – Б. 3-9; Отажонов А. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 94-111.; Улуқов Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 38.; Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон оронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. – Самарқанд, 2021. – 290 б.

<sup>6</sup> Хофиз Ганиш Бухорий. Абдуллонома. 1-жилд. – Тошкент, 1966. – 273 б.; Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент, 1960. – 512 б.; Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе с приложением списка населенных мест округа. – СПб., 1874.

<sup>7</sup> Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 177 б.

**Tadqiqotning maqsadi.** Shimoliy Tojikiston toponimlarining kelib chiqish omillari, nomlanish sabablari, leksik-semantik va onomastik-grammatik, tarixiy-etimologik, etnolingvistik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Shimoliy Tojikiston toponimlari bo'yicha faktik materiallarni yig'ish, toponimik birliklarning grammatik, leksik-semantik, etimologik, lingvotoponimik belgilarini aniqlash;

Shimoliy Tojikiston toponimlarining onomastik-morfologik xususiyatlarini toponimiya tamoyillari va usullari asosida tavsiflash;

Shimoliy Tojikiston toponimlarini semantik-onomastik, morfologik, derivatsion, struktur jihatdan tasniflash;

Shimoliy Tojikiston hududi bilan bog'liq joy nomlarining lisoniy xususiyatlarini onomastika me'yorlariga mos holda tavsiflash va semantik tiplarini dalillash;

Shimoliy Tojikiston toponimlarining kelib chiqish asos va omillarini, nomlanish xususiyatlarini sinxron, qisman diaxron aspektda yoritish;

Shimoliy Tojikiston toponimlarining leksikografik talqini va tavsifini kuzatish, tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Shimoliy Tojikiston toponimlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Shimoliy Tojikiston toponimlarining leksik, morfologik, semantik, onomastik, etimologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, lingvogeografik, tahlil va umumlashtirish, nominativ-onomasiologik, matematik statistika, tasniflash, funksional-semantik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Shimoliy Tojikiston toponimlarining xalq tarixi, madaniyati, ijtimoiy munosabat va tabiiy sharoit bilan bog'liq semantik, o'z va o'zlashma qatlamga munosabatining lingvistik xususiyatlari ochib berilgan;

Shimoliy Tojikiston toponimiyasiga mansub O'ratepa, G'onchi, Patar, Sirdaryo, Xo'jand kabi atoqli otlarning etimologik xususiyatlari Xitoy solnomalari, Mug' tog'idan topilgan So'g'd hujjatlari, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Z.M. Boburning "Boburnoma" asarlari asosida oydinlashtirilgan;

Shimoliy Tojikiston joy nomlarining etimologiyasi, toponimik ma'nosi, fonetik, morfemik va morfologik modellari, ularning shakllanishi hamda yasalishiga oid diaxron va sinxron xususiyatlari hozirgi o'zbek tili toponimikasi nazariyasiga muvofiq aniqlangan;

Shimoliy Tojikiston hududidagi joy nomlarining etnotoponim, antropotoponim, gidrotoponim, fitotoponim, kasb-kor atamalari asosida shakllangan semantik tiplari dalillanib, toponimlar onomastik tamoyil va me'yorlarga mos holda ularning lingvistik tabiatiga xos lisoniy, asos+qo'shimcha, asos+asos, asos+asos+qo'shimcha tarkibli onomastik-morfemik; ot+sifat, ot+ot, ot+fe'l, sifat+ot, son+ot modeli onomastik-morfologik; affiksatsiya, konversiya, transonimizatsiya bilan bog'liq onomastik-derivatsion xususiyatlari ochib berilgan;

Shimoliy Tojikiston toponimlarining shakllanishida urug' nomlari, geografik obyekt nomlari, antroponimlar, gidronimlar asos bo'lganligi, Shimoliy Tojikiston umumiy toponimik birliklarning ko'pchiligi turkiy etnonimlar asosida yasalgani dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Shimoliy Tojikiston toponimlari bo'yicha yig'ilgan keng faktik materiallar asosida joy nomlarini ifodalovchi onomastik birliklarga xos grammatik, leksik-semantik, etimologik, lingvotoponimik, umumiy va xususiy belgilar hudud aholisining tili, dunyoqarashi, milliy an'ana va urf-odatlariga bog'liqligi dalillangan;

Shimoliy Tojikiston hudud toponimlariga oid materiallar tahlilidan kelib chiqadigan ilmiy xulosalar o'zbek toponimshunosligining nazariy va amaliy asoslari hamda tahlil usullarini boyitishi asoslangan;

Shimoliy Tojikiston toponimlari ilmiy tadqiqi natijalari onomastikaning muhim yo'nalishi bo'lgan toponimika bo'yicha izohli, imlo lug'atlarini yaratishda, viloyat va respublika toponimiya komissiyalari ishida joy nomlarini rasmiylashtirishni tartibga solish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda manba sifatida xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llangan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar qiyosiy-tarixiy, lingvogeografik, tahlil va umumlashtirish, nominativ-onomosiologik, matematik statistika, funksional-semantik metodlar vositasida asoslanganligi, mavzu yuzasidan chop etilgan monografiya, respublika va xalqaro miqyosda e'lon qilingan ilmiy maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Shimoliy Tojikiston hamda mamlakat hududidagi har bir tuman toponimlari bo'yicha lingvistik tadqiqot olib borish, ularning grammatik, leksik-semantik, etimologik, umumiy va xususiy belgilarini aniqlash, izohli va imlo lug'atini yaratish asoslarini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan "O'zbek onomastikasi", "O'zbek tili tarixi", "O'zbek dialektologiyasi", "Hozirgi o'zbek tili", "O'zbek leksikografiyasi" fanlariga aloqador muammolarni tadqiq etish bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldirish va kengaytirish, toponimlarining izohli lug'atini, o'zbek tili korpusi uchun toponimlar bo'yicha lingvistik bazani yaratishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shimoliy Tojikiston turkiy toponimlarining leksik-grammatik, etimologik va lingvistik tadqiqi jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Shimoliy Tojikiston hududidagi joy nomlarining etnotoponim, antropotoponim, gidrotoponim, fitotoponim, kasb-kor atamaları asosida shakllangan semantik tiplari; toponimlarning onomastik-morfemik, onomastik-morfologik, onomastik-derivatsion xususiyatlari yuzasidan bildirilgan

xulosalaridan RZ-2020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" (2018-2021) ilmiy-amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 5-iyuldagi 01/6-2227-son ma'lumotnomasi). Natijada yasalish hodisasining toponimlarga tegishli xususiyatlarini yoritish, tavsiflashning mukammallashuviga erishilgan;

Shimoliy Tojikiston toponimiyasiga mansub Ustravshan, O'ratepa, G'onchi, Patar, Sirdaryo, Xo'jand kabi atoqli otlarning ilmiy manbalar asosidagi talqiniga doir xulosalaridan 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-20170927147 raqamli "Qadimgi davrlardan XIV asrgacha bo'lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi" mavzusidagi amaliy loyihaning bajarilishida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 13-maydagi 04/1-932-son ma'lumotnomasi). Natijada tarixiy toponimlarda taraqqiy etib kelayotgan tarixiy-folkloriy jarayonning muhim xususiyatlari mavjudligi, toponimik materiallar bergan ma'lumotlar yordamida epik syujetning an'anaviylashish jarayoni va uning tarkibidagi asosiy motivlar genezisi masalalarini ilmiy asoslarda yoritish imkoni ta'minlangan;

Shimoliy Tojikiston joy nomlarining toponimik ma'nosi, fonetik, morfemik tarkibi, ularning shakllanishi hamda yasalishi tahlili yuzasidan chiqarilgan xulosalardan professor B.R.Mengliyevning 5220100-Filologiya va tillarni o'qitish bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun 2018-yilda nashr qilingan "Hozirgi o'zbek tili" darsligida foydalanilgan. (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 13-maydagi 04/1-931-sonli ma'lumotnomasi). Natijada darslikning leksika, leksik-semantik sath, o'zbek tili leksikasi tasnifi, o'zbek lug'atchiligiga oid manbalarning boyitilish imkonini bergan;

Shimoliy Tojikiston toponimlarining xalq tarixi, madaniyati, ijtimoiy munosabat va tabiiy sharoit bilan bog'liq semantik, o'z va o'zlashma qatlamga munosabatining lingvistik xususiyatlari, toponimlarning shakllanishida urug' nomlari, geografik obyekt nomlari, antroponimlar, gidronimlar asos bo'lganligi, Shimoliy Tojikiston toponimlarining ko'pchiligi turkiy etnonimlar asosida yasalgani xususidagi xulosalardan 2018-2020-yillarga mo'ljallangan OT-F1-029 raqamli "O'zbek davlatchiligi tarixida sug'diy til va yozuvining tutgan o'rni (mil.av. II – milodiy XII asrlar)" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 3-iyundagi 15-1079-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek davlatchiligi tarixi, til va yozuv munosabati masalasining faktik materiallar bilan asoslanishi uchun manba sifatida xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminar, jumladan, 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari

asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (shu jumladan, 8 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi – 256 sahifa.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning "**Shimoliy Tojikiston toponimlar tizimining mazmun plani**" deb nomlangan birinchi bobi to'rt bo'limdan iborat. Uning birinchi bo'limi "Toponimik sistemaning shakllanish tarixi" deb nomlangan. Toponimlar jonli tilga nisbatan har xil tarixiy mintaqalar til birliklarining ancha barqaror va oz o'zgaruvchanlik xususiyatga ega qismi sifatida eng qadimgi tillar evolyutsiyasining turli davrlariga xos belgi-xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Toponimlarning bu muhim xususiyati turli diaxronik (tarixiy) jarayonlar haqidagi bilimlarni to'ldirishga, jumladan, tilshunoslikning tarixiy muammolari va tarixiy jarayonlar davomida millatning shakllanishiga oid bilimlarni to'ldirishga yordam beradi hamda ana shu tarixiy jarayonlar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Toponimlarni o'rganish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Pomponiy Melaning "Xorografiya", Pliniyning "Tabiiy tarix" asarlarida, shuningdek, O'rta asr yodgorliklarida geografik nomlarga oid toponimik ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Bu ma'lumotlarda toponimlarning kelib chiqish tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar afsonaviy, xalq etimologiyasi xarakterida, bu ma'lumotlar orasida hozirgi davr talablari asosidagi talqinlar ham kuzatiladi. Eramizning I asrida Pomponiy Mela geografik nomlardan tarixiy-geografik tadqiqot obyekti sifatida foydalanib Ispaniyaning Kelt va Luzitaniya viloyatlarining chegaralarini aniqlagan.

Toponimikaning fan sifatida yuzaga kelishi o'tgan asrning boshlariga to'g'ri keladi. Bu sohaning jahon tilshunosligidagi rivojida H.A.Smit, A.L.Dauzat, G.J.Kopley, G.V.Lemon kabi olimlarning xizmati katta. Ularning ilmiy ishlari toponimikaning nazariy va amaliy masalalari tadqiqida alohida o'rin egallaydi<sup>8</sup>.

O'tgan asrning boshlarida A.Vamberi, V.V.Bartold, M.E.Masson, S.P.Tolstov, E.M.Murzaev, Ya.G'ulomov, S.G.Klyashtorniy, F.Abdullaev kabi atoqli sharqshunoslar O'rta Osiyo toponimikasiga doir talay maqola e'lon qilgan<sup>9</sup>.

---

<sup>8</sup> Smit A.H. English Place-Names Elements. – Cambridge: 1956. – 163 p.; Алберт Даузат. La Toponymie française. – Paris: Bibliothèque scientifique, Payot, 1960, Réimpression 1971 – 168 p.; Copley G.J. Names and Places with a short dictionary of common or wellknown place-names. – London: Phoenix House Ltd., 1963. – 226 p.; Лемон Г.Б. English Etymology. – G.: Robinson, 1783. – 693 с.

<sup>9</sup> Ҳасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 4.

Toponimika onomastikaning yirik yoʻnalishi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan oʻzbek tilshunosligida alohida soha sifatida oʻrganila boshlangan. Taniqli oʻzbek geograf olimi H.Hasanov – toponimika sohasida dastlabki ilmiy ishlar muallifi. Professor H.Hasanov Oʻrta Osiyo toponimiyasini birinchilardan keng qamrovli oʻrganganishga kirishgan.

Oʻrta Osiyo, jumladan, Tojikiston toponimiyasining qadimgi holati haqida A.L.Xromovning asarlaridan qimmatli maʼlumot olish mumkin. Xususan, joy nomlari haqidagi fan – toponimiyaning shakllanishi uzoq tarixga borib taqalishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni ham sharqshunos va tilshunos A.L.Xromov oʻz ilmiy ishlarida qayd etgan. Olim hozirgi Oʻrta Osiyo hududining toponimikasi toʻgʻrisidagi ilk maʼlumotlarni eramizdan avvalgi I asrdada yashagan grek olimi Strabon, IX asrda yashagan Ibn Xoʻrdodbeh, X asrda yashagan Abu Jaʼfar Narshaxiy, Muqaddasiy va boshqalarning asarlarida uchrashini qayd qiladi. A.L.Xromovning qayd etishicha, toponimikaga doir ilmiy asoslangan ilk fikrlar arab olimi Yoqut tomonidan bayon etilgan.

Biz oʻrganayotgan hudud toponimlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida tahlilga tortilmagan boʻlsa-da, Tojikiston turli hududlarining geografik nomlarini ilmiy tahlil qilish, asosan, oʻtgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Bunga qadar rus sharqshunoslari S.I.Klimchitskiy, O.I.Smironova, A.Z.Rozenfeld, A.A.Freyman, V.A.Mallitskiy, N.G.Livshits, M.I.Bogolyubov, D.I.Edelman, T.N.Paxalin, M.I.Steblyn-Kamenskiylar Oʻrta Osiyoning ayrim hududlari, xususan, Tojikiston toponimiyasi boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Oʻrta Osiyo toponimikasi bilan bogʻliq masalalar, ilk izlanishlar, uning muammolari bilan shugʻullanish Sharq olimlariga ham begona emas. Toponim va boshqa geografik obyektlar nomlari haqidagi ilk maʼlumotlar hamda sharhlar mutafakkir allomalar – Mahmud Koshgʻariy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Jaʼfar Narshaxiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Samarqandiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Abu Tohirxoja kabilarning qomusiy asarlarida ham uchraydi.

Tadqiqotning "Shimoliy Tojikiston toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari" deb nomlangan ikkinchi boʻlimi onomastik leksika paradigmasini hosil qiluvchi *oronim*, *xoronim*, *dramonim*, *oykonim*, *gidronim*, *adronim* va *drimonimlarga*<sup>10</sup> bagʻishlangan. Mavzuga daxldor mavjud ilmiy manbalarga asoslangan holda, Shimoliy Tojikiston hududiga mansub toponimlarning semantik-onomastik tasnifini amalga oshirish mumkin. Hududning qishloq xoʻjalik yerlari – bogʻ, ekinzor, dala, marza, yer uchastkasi kabilar bilan bogʻliq agroonim (yunoncha agros "dala") guruhiga mansub quyidagi toponimlarini qayd qilish lozim: Jabbor Rasulov tumani Gʻoʻlankandoz qishlogʻidagi *Oqtom*, *Axtachi*, *Kunjak*, *Qoʻngʻirot*, Xitoy qishlogʻidagi *Yantoqzor*, *Devona*, *Kaptarxona*, *Takanmazor*, *Juhutboy qoʻrgʻonchasi* singari ekin maydonlari nomi va b. Toponimik tizimning kishi nomlari, familiyalar, laqablar asosida yaratilgan joy nomlari *antropotoponimlar* / *antropooykonimlar* deb ataladi. Qaznoq qishlogʻidagi *Karimshayx qozi* machit nomi, Hashtiyak qishlogʻidagi Farhod tepaligi, Qoʻshtegirmon qishlogʻidagi *Vali*

---

<sup>10</sup> Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978. – С. 133.

*Xoja mozori* kabilarni antropotoponim sifatida ko'rsatish mumkin. Istaravshan tumani Bolg'ali qishlog'idagi *Kattasoy* suv ombori, Xo'jand tumanidagi *Sho'rko'l* nomli ko'l *gidronimlar* hisoblansa, *pelagonimlar* – dengizlar nomini bildirib, bunday toponimlar, So'g'd viloyatidagi "Tojik dengizi" nomi bilan ataluvchi Guliston (Qayroqqum) shahridan Konibodomgacha cho'zilgan *Qayroqqum suv omborini hisobga olmaganda*, Markaziy Osiyo hududida mavjud emas. Shuning uchun toponimning bu guruhiga, *Sirdaryodan tashqari*, So'g'd viloyatining turli tumanlari hududida uchrovchi *potamonimlar*, ya'ni daryo va jilg'alar nomiga quyidagilarni kiritish mumkin: *Arabasoy, Yomonsoy, Xo'ja Baqirgan, Pang'oz* kabilar. Shimoliy Tojikiston tumanlarida tabiiy buloqlar ancha, ularni ifodalovchi nomlar gelonimlar deb ataluvchi guruhni tashkil qiladi.

*Gumbuloq, Zaxsuv, Mingburbuloq, O'rtabuloq, Sari(q)buloq, Jarbuloq, Ko'rbuloq, Qo'tirbuloq, Arabbuloq, Qo'ruqbuloq, Toshbuloq* kabilar shular jumlasidan.

*Oronimlar* aslida tog' nomlarini bildirsa-da, yer sathining baland ko'rinishlari: cho'qqi, tepa, qir, dovon, dara va jar nomlari ham oronimik birliklar sifatida qayd qilinadi. Professor H.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" asarida *gidronim va oronimlar* va, ayniqsa, ularning nomlanish xususiyatlariga oid nazariy ma'lumotlar batafsil berilgan<sup>11</sup>. Shimoliy Tojikiston geografik hududi, asosan, tog'liklardan iborat bo'lganligi uchun, balandlik xususiyati bilan tavsiflanuvchi toponimlar tekislik xususiyatiga ega toponimlarga nisbatan ko'p: *Mo'g'ultov, Zovtepa, Munchoqtepa, Chimbandtepa, Jamoatqiri, Jarliktepa, Janobiltepa* kabilar. Toponimlar paradigmasida oykonimlar deb ataluvchi joy nomlari ham borki, ularning lisoniy tavsifi haqida N.Oxunovning "Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari" nomli asarida (Toshkent, 1989) atroflicha ma'lumot berilgan. Turkiyzabon etnik jamoa istiqomat qiladigan hududlarning aksariyatida bo'lganidek, oykonim birliklar Shimoliy Tojikistonda ham toponimlarning boshqa turlariga nisbatan ko'proq uchraydi: *Choltosh, Yangiqo'rg'on, Yangiqishloq, Qo'shtegirmon, Saidqo'rg'on, Oqtepa va b.* Mazkur oykonimlarni, ifoda va mazmun plani bilan bog'liq ayrim lisoniy jihatlariga ko'ra, uch guruhga ajratish mumkin: 1) morfem tarkibining har ikki qismi ham sinxron jihatdan hozirgi lug'aviy ma'nosini saqlagan toponimlar: *Yangiqo'rg'on, Yangiqishloq, Qo'shtegirmon, Oqtepa, Qorabo'yin, Gulqishloq, Ko'kko'zqo'rg'on, Qatorbuloq, Yakkaterak, Sho'rqo'rg'on, Qo'shqo'rg'on, Beshtol, Oqquduq, Sariqamish va hokazo*; 2) morfem tarkibi birinchi unsurining ma'nosi xiralashgan toponimlar: *Ovqapchig'ay, Sarito'qay, Qistako'z*; 3) har ikki tarkibiy unsurining shakl va ma'nosi sinxron jihatdan qisman saqlangan toponimlar: *Choltosh, Tog'oyoq, Beshkal, Xamirjo'y* kabi.

Birinchi bobning uchinchi bo'limi "Shimoliy Tojikiston toponimlarida fizik-geografik motivlanish talqini" deb nomlanadi. Toponimlar ifoda imkoniyatlariga ko'ra turli-tuman voqelikni o'zida mujassam etgan holda yashaydi va ular har xil usul asosida tadqiq qilinganda o'z asosida saqlab kelayotgan lisoniy "sirlarni"

---

<sup>11</sup> Hasanov X. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 82 б.

oshkor etadi. Shunga muvofiq, Shimoliy Tojikiston toponimlari tizimida mavjud bo'lgan ayni tipdagi onomastik birliklarni fizik-geografik sharoitni anglatishiga ko'ra tahlil qilish lisoniy dalilni qo'lga kiritish imkonini bir qadar oshiradi. Jahon miqyosidagi joylarning geografik o'rniga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar semantik xususiyatiga diqqat qilinsa, shu joyning qandaydir belgisini bevosita anglatishining guvohi bo'lish mumkin. Ayrim toponimlarning lug'aviy asosi hozirgi o'zbek tili me'yorlariga ko'ra tushunarli, aniq, ammo motivativ asosi mavhum, yashirin bo'ladi. Bu tip nomlarda toponim uchun asos bo'lgan so'z qanday leksema ekani aniq ko'rinib turadi. Chunonchi, *Baxiltog'* toponimi – *baxil* va *tog'* so'zlarining; *Oqtog'* toponimi – *oq* va *tog'* so'zlarining; *Qoratog'* toponimi – *qora* va *tog'* so'zlarining hosilasi ekanligi aniq. Ammo bu toponimlarning nominativ ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri asos so'zlarning oddiy ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki ularning ko'chma – ramziy ma'nolaridan yuzaga keladi. *Baxiltog'* – bu tog'da suv, o'simlik va hayvonlar kam ekanini anglatadi. *Oqtog'* – baland, qor ko'p saqlanib turadigan, uzoqdan oqarib ko'rinadigan tog'; *Qoratog'* – unchalik baland bo'lmagan, uzoqdan qorayib ko'rinadigan tog' va b<sup>12</sup>. Shimoliy Tojikiston toponimlari shakl va ma'noga nisbatan, barcha turkiy qavmlar yashaydigan hududlarda bo'lganidek, rang-baranglikka ega. Bunday xususiyat, yuqorida urg'u berilganidek, o'zining talay obyektiv va subyektiv sabablariga ega. Shunga ko'ra, mazkur toponimlarni ikki guruhga ajaratib tasnif etish maqsadga muvofiq: professionalizmga oid hamda muayyan belgi semali toponimlar va fizik-geografik sharoitni bildiruvchi toponimlar. Onomastikada ayrim shaklan kasb-hunar nomini anglatish qolipiga o'xshasa-da, umuman boshqa tushunchani anglatadigan ot bo'lishi ham mumkin. Ularni diaxronik aspektida baholash lozim. Shimoliy Tojikiston toponimiyasida shu kabi birliklar miqdori ham talay. Masalan, Jabbor Rasulov tumanining Gulxona qishlog'idagi *Ovchi ariq*, *Axtachi ariq* kabi ariq nomlari va *Axtachi* – ekin maydoni nomi ham xuddi shunday onomastik birliklar sirasiga kiradi. Zohiran bu atama "ovchilar foydalanadigan ariq" ma'nosini tashiydigandek ko'rinadi. Aslida ovchi – o'zbek urug'laridan birining nomi sanaladi<sup>13</sup>. A.M.Shcherbakning ko'rsatishicha, *axta* so'zi mo'g'ulcha *ag'tadan* shakllangan va "buzilgan", "buzuq" ma'nolarini anglatadi<sup>14</sup>. Demak, *Axtachi* gidronimi "buzuq ariq" degan ma'noni o'zida mujassam etgan, shakl va ma'no nomutanosibliyi yuz berishi natijasida shunday ko'rinishga ega bo'lgan. O'simlik dunyosi bilan bog'liq holda shakllangan joy nomlari Shimoliy Tojikiston toponimiyasida ham ko'p. O'simliklar bilan bog'liq nomlar ba'zan aniq miqdorni bildiradi. *O'rikzor*, *Bodomzor*, *Chilonzor*, *Terakzor*, *Qatortol* nomlari o'sha joylarda shu tur o'simliklarning ko'p tarqalganligini bildirsa, *Yakkatut*, *Qo'shchinor*, *Qo'shtut* kabi nomlar bu tur o'simliklar kamligini bildiradi. Shimoliy Tojikiston fitotoponimlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, ular jamiyat

<sup>12</sup> Орипов У.А. Нурута топонимининг этимологиясига доир илмий қарашлар. <https://cyberleninka.ru/article/n/nurota-toponimining-etimologiyasiga-doir-ilmiy-qarashlar>

<sup>13</sup> Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент, 1968. – Б. 41; Овчи – А.П. Хорошхиннинг кўрсатишича, овчи – ўзбек уруғларидан бири. Этноним гидронимга ўтган.

<sup>14</sup> Историческое развитие лексики тюркских языков.(сборник статей). АН СССР Отв.ред. Урбатова Е.И. – М., 1961. – С. 86–87.

hayotining keyingi davrlarida faol shakllangan. Shuning uchun bunday toponimlarni tushunish bugungi o'zbek tilining sohiblariga qiyinchilik tug'dirmaydi. Masalan, Xo'jand tumani Uyas qishlog'i atrofidagi ovullar *Terak*, Konibodom tumanidagi qishloq nomi *Yakkaterak*, Spitamen tumanidagi Qo'shtegirmon qishlog'ining qabristoni *Qayrag'och*, Konibodom tumanidagi bir qishloq nomi *Qayrag'ochi*, Xo'jand tumanidagi ovul nomi *Tutli ovul* atamasi bilan nomlanib keladi.

Bobning to'rtinchi bo'limi Shimoliy Tojikiston toponimlarining tashqi va ichki semantik belgilarga munosabati masalalari tadqiqiga bag'ishlangan, unda toponimiya tizimi til onomastik sistemasining ko'p asrlik rivoji mahsuli sifatida talqin qilinadi. Nomlarning paydo bo'lish tarixi va asoslari unutilsa-da, har qanday toponimning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlangan bo'ladi. Bu ko'pgina nomning yasalishi va grammatik strukturasi tahlil qilish orqali belgilanadi. Ayniqsa, iste'moldan chiqqan nomlar o'rnini to'ldirish, yangi obyektlarga yangi nomlar berish muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi<sup>15</sup>. Shimoliy Tojikiston toponimlarini quyidagi mikrogruphlarga ajratib tahlil qilish mumkin: 1. Shakl-ko'rinish jihatidan. 2. Hajm-o'lchov jihatidan. 3. Maza-ta'm ma'nosiga aloqadorlik belgisiga ko'ra. 4. Rang-tus bildirish jihatidan. 5. Ba'zi o'ziga xos belgilariga ko'ra<sup>16</sup>.

Dissertatsiyaning "**Shimoliy Tojikiston toponimlarining morfologik-struktur xususiyatlari**" deb nomlangan ikkinchi bobi toponimlarning morfologik tuzilishi, yasalish xususiyatlari, morfemik tarkibi tadqiqiga bag'ishlangan. "Shimoliy Tojikiston toponimlarining morfologik tuzilishi tahlili va tasnifi" deb nomlangan birinchi bo'limida toponimlarning struktur xususiyatlari o'ziga xos tarzda tasnif qilingan. Bunda, asosan, toponimlarning shakliy tomoniga asosiy e'tibor qaratilgan. Toponimlarning struktur jihatdan tasniflanishi ham toponimkaning vazifalari sirasida alohida o'ringa ega. Toponimlarni tadqiq qilish amaliyotidan ma'lumki, ma'lum bir hududning geografik nomlarini o'rganayotganda, toponimlarni o'rganish va tasniflashda sezilarli natijalarga erishish uchun ularning turli mezonlariga e'tibor berish taklif qilinadi<sup>17</sup>. Toponimlarning shakliy tarkibi xususiyatlarini o'rganish doirasida ularning tuzilishi, morfemik tarkibi, yasalish usuli, toponimlarning hosil bo'lishida formantlarning o'rnini ham alohida ahamiyatga ega. Geografik nomlarning struktur xususiyatlarini, shuningdek, grammatik shaklini o'rganish asosiy va muhim muammo sifatida, bir tomondan, etimologiyaga yaqin, ikkinchi tomondan esa ajratib ko'rsatishga ko'maklashadi<sup>18</sup>. Shuningdek, muayyan hudud toponimlarini tuzilish va tarkib jihatdan tadqiq qilish u yoki bu til bilan tarixiy aloqalarini oydinlashtirishga ham hissa qo'shadi. Shimoliy Tojikiston toponimlarining struktur

<sup>15</sup> Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – Б. 18.

<sup>16</sup> Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 301.

<sup>17</sup> Суперанская А.В. Языковые и внеязыковые ассоциации собственных имен [Текст] / А.В.Суперанская // Антропонимика. – М., 1970. – С. 3-18.

<sup>18</sup> Карпенко Ю.А. Свойства и источники микротопонимии [Текст] / Ю.А.Карпенко // Микротопонимия. – М.: Изд-во МГУ, 1967. – С. 15-22.

xususiyatlarini, tarkibiy tuzilishini quyidagicha tasniflash mumkin: *sodda tarkibli toponimlar, qo'shma tarkibli toponimlar va murakkab tarkibli toponimlar.*

*Sodda tarkibli toponimlar* tarkibi bir lug'aviy asosdan tashkil topganligi bilan alohidalik kasb etadi. Shimoliy Tojikiston toponimlarining sodda tarkibli birliklarini nomlash obyektiga ko'ra quyidagi ichki guruhlariga ajratish mumkin: sodda tuzilishli shahar, tuman, guzar, mahalla, bog', dala, yaylov, ariq, soy, buloq, daryo, tepalik, adirlik, tog' nomlari: *Xo'jand (shahri), Qo'rg'on (guzari), Toshloq (mahalla), Kamar (yaylov), Qo'ng'iroq (ariq), Soycha (daryo), Chillaxona (tepalik)* kabi. Shimoliy Tojikiston toponimiyasidagi sodda tarkibli toponimik birliklarni morfologik tarkibi jihatidan *ot asosli sodda toponimlar (ot asosli) Asht, Matcho, Xo'jand; ot+qo'shimcha=ot asosli G'onchi, Shahrison, Zafarobod; sifat+qo'shimcha=ot asosli Pastki, O'rtaliq; fe'l+qo'shimcha=ot asosli Qayirma, Ko'tarma; taqlid+qo'shimcha=ot asosli Sharshara* kabilarga bo'lish mumkin. *Sifat asosli sodda toponimlar (sifat asosidan) Tentak, Ichki, Bo'z, Yangi, Ingichka, Oq, Chuqur, Boylar, Qorabek, Eski; ot+qo'shimcha=sifat asosdan Sarimsoqli, Olmali, O'roqli, Yantoqli va boshqalar; son asosli sodda toponimlarga Ettivoy (tepalik), Qirq (guzar), Duoba (qabrison), Chorku (shahar)* kabilarni misol sifatida ko'rsatish mumkin. Sodda tarkibli toponimlar sirasida, kuzatilganidek, ot, sifat so'zlari yetakchilik qiladi, miqdor bildiruvchi so'z ishtirok etgan sodda tuzilishli toponimlar sanoqli bo'lsa, bu turdagi toponimlar orasida fe'l va boshqa so'z turkumlariga mansub birliklar uchramaydi. Shimoliy Tojikiston toponimlarining *qo'shma tarkibli turlarini* morfologik asosi va tuzilish modeliga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin. *Ot+ot* modeli (*Bozortepa (bog'), Isiriqsoy (ekin maydoni), Toshkalla (adir), Jarko'cha (mahalla), Anhorariq (ariq), Qorovultepa (bog'), Toshko'prik (ovul) va b.*). *Sifat+ot* modeli *Yangiqo'rg'on (qishloq), Oqqal'a (ariq), Oqyer (ekin maydoni), Egriqo'tan (adir), Sho'rqishloq (guzar), Balandtarnov (mahalla) va b.*). Shimoliy Tojikiston toponimlarining qo'shma komponentli turi orasida kam miqdorda bo'lsa-da, *ot+sifat* modeli toponimlar ham kuzatiladi: *Yulduzko'k (tepalik), Jiyanchuqur (ariq), Qozonko'k (yaylov)* kabilar. *Son+ot* modeli *Chorqishloq (qishloq), Mingbirbuloq (buloq), Uchtepa (adir, ovul)* kabi. Ushbu qo'shma tarkibli toponimlarning qismlari o'zaro aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida bo'ladi. Shu o'rinda *dovon* so'zi bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'la oladigan *oshuv, bel, o'tku* kabi so'zlar ham ushbu hudud toponimiyasida qo'shma tarkibli toponimlarning ikkinchi uzvi sifatida oronimlarning tarkibida ishtirok etganligini qayd etish lozim. *Oqbel* (Somg'ordan Konibodomga o'tish dovoni nomi), *Eshako'tku* (Qirg'izistondan Matcho tumaniga o'tish dovoni nomi), *Eshakoshuv* (Sho'rko'l qishlog'idagi dasht nomi). Shimoliy Tojikiston toponimlarining qo'shma tarkibli turini leksik-semantik jihatdan ham tasniflash mumkin. Bu tasnifda qo'shma komponentning birinchi uzvi asos sifatida tanlansa, quyidagi tipdagi qo'shma toponimlar qayd qilinishi lozim bo'ladi. *Antroponim+ot* tipli: *Saidqo'rg'on (qishloq), Farmonqo'rg'on (qishloq), Sulaymontepa (tepalik); zoonim+ot* tipli: *Qo'ytoshi (bog'), Jayrakamar (tepalik), Qo'ziyaylov (yaylov), Echkiqir (bog'), Tuyacho'kdi (tepalik), Bo'riqochar (ovul); fitonim+ot* tipli: *Isiriqsoy (ekin maydoni),*

*Qamishqo 'rg'on* (qishloq) kabilar. Fitonimlarning qo'shma tarkibli toponimlar ikkinchi komponenti bo'lib kelgan ko'rinishlari ham uchraydi: *Konibodom* (tuman), *Beshtol* (qishloq), *Qizilolma* (bog'), *Qo'shtut* (qishloq) kabilar. *Etonim+ot* tipli: *O'zbekqishloq* (qishloq), *Arabbuloq* (buloq), *Mo'g'ulariq* (ariq), *Qozoqtepa* (tepalik), *Qoraxitoy* (qishloq), *Qirg'izqishloq* (qishloq); *oronim+ot* tipli: *Zovqo'ton* (adir va tepalik), *Jarsuvot* (ovul), *Jarqishloq* (mahalla, guzar), *Jarqo'rg'on* (qishloq); *gidronim+ot* tipli: *Gumbuloq* (buloq), *Qo'turbuloq* (qishloq), *Sho'rbuloq* (yaylov) kabilar. Shimoliy Tojikistonda murakkab tarkibli toponimlarini birikma hamda gap shaklidagi toponimlarga ajratish mumkin. Birikma shaklidagi toponimlarga *Anhor labi* (mahalla), *Oyim bog'i* (guzar, mahalla), *Qo'rg'on ichi* (mahalla), *Xo'jand yo'li* (mahalla), *Tegirmonboshi* (guzar), *Do'stmat qiri* (tepalik), *O'tovoldi* (yaylov), *Madkarim ellikboshi mahallasi* (mahalla), *Quyi darvoza mahallasi* (mahalla), *Qizilmachit mahallasi*, *Qirq qoziq oraligi* (tog' yaylovi), *Qirq qiz g'ori* (g'or) kabilar kiradi. Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarkibida *gap shaklidagi joy nomlari* ham uchraydi. Bu turdagi toponimlar tarkibi, asosan, ikki komponentli bo'lib, *ot+fe'l* tuzilishlidir: *Biyaso'ydi* (bog', ekin maydoni), *Tuyacho'kdi* (tepalik), *Biykeldi* (daryo), *Chaldivoldi* (qishloq), *Xo'ja saroy topdi* (qabriston) kabilar. Ko'rinadiki, gap shaklidagi toponimning ikkinchi qismini fe'lning tuslangan shakli to'ldirib kelgan. Bu turdagi toponimik birliklar asosan bog', ekin maydoni, daryo, tepalik, qishloq, qabriston kabilarning nomi sifatida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Mazkur bobning "Shimoliy Tojikiston toponimlarining yasalish xususiyatlari" deb nomlangan ikkinchi bo'limi Shimoliy Tojikiston toponimiyasi tarkibidagi nomlarning yasalishida morfologik, sintaktik va onomastik konversiya usullari tahliliga bag'ishlangan. Mazkur hudud toponimiyasi tarkibi yuzasidan olib borilgan kuzatishlarimiz toponimlarning qo'shimcha qo'shish, so'z qo'shish, so'zlarni yangi ma'noda qo'llash usullari asosida tarkib topganligini ko'rsatdi. Shularga asoslangan holda, Shimoliy Tojikiston toponimlarini yasalish usuliga ko'ra *morfologik, sintaktik, konversiya va transonimizatsiya* usullariga ajratish mumkin. **Morfologik usul bilan hosil bo'lgan toponimlar:** Shimoliy Tojikiston toponimiyasidagi *Qo'rg'oncha*, *Qayirma*, *Sarimsoqli*, *Sho'rchi*, *Ko'kto'nlik* kabi yasama toponimlar asosga *-cha*, *-chi*, *-ma*, *-lik* yasovchilarini qo'shish orqali yuzaga kelgan. *Maydoncha*, *Qo'rg'oncha* toponimlarida yasovchi obyektning hajmiga ishora qiladi. *Itorchi*, *Ovchi*, *Qarapchi* toponimlarda totemistik sema jamlangan: *Itorchi* – yalovida it belgisi, *Ovchi* – tug'ida sigir belgisi, *Qarapchi* – tug'ida ulug'vorlik (cho'qqi) belgisi mavjud bo'lganlikni anglatgan. Ma'lum bo'ladiki, qayd qilinganlar tarkibidagi yasovchi vositalarning o'rni va vazifasi bir xil emas, ayrimlari toponim yasalishiga, ba'zilarida esa topoasosning yasalishiga xizmat qilgan. Tadqiqotimiz obyektidagi toponimlarning tarkibida *-cha*, *-loq*, *-li*, *-lik*, *-ma*, *-liq*, *-chak*, *-zor*, *-iston* kabi so'z yasovchi qo'shimchalar mavjudligi, ularning toponimlar tarkibida ishtirok etish o'rni va vazifasi, salmog'i har xil, ya'ni ba'zi o'rinlarda toponim yasash uchun, ayrim holatlarda toponim yasalishi uchun asos bo'lgan birlikni yasashga xizmat qilganligi kuzatiladi. Shimoliy Tojikiston toponimlari yasalishi tizimidagi so'z yasovchi qo'shimchalarni ham toponim

yasashga xizmat qiluvchi qo‘shimchalar hamda toponim yasalishiga asos bo‘lgan so‘zni yasashga xizmat qiluvchi qo‘shimchalarga ajratish mumkin: toponim yasashga xizmat qiluvchi so‘z yasovchi qo‘shimchalar: -li (*Yantoqli, Olmali, Tutli*); -lik (*Zog'chalik, Pistalik, Balandlik, Toshkandlik, Ichkarilik, Tashqarilik, Yoriqlik*); -(a)k (*Kunjak, Ko'chkak, Tikonak, Qizak*); -ma (*Ko'tarma, Qotma*); -chi (*Yilqichi*); -zor (*Yantoqzor*); -iston (*Shahriston*); toponim yasalishiga asos bo‘lgan so‘zni yasashga xizmat qiluvchi qo‘shimchalar: -li (*Qo'zovulli, Bolg'ali, O'roqli, Ishqili*); -lik (*Ko'kto'nlik, Jingilik*); -chi (*Axtachi, Taqachi, Cho'yanchi, Itorchi, Dukchi, Ovchi*); -zor (*Lolazor*); -ak (*G'azandarak, Qizak*); -ma (*Sachratma, Qayirma*); -loq (*Toshloq, Qishloq*). **Sintaktik usul bilan hosil bo‘lgan toponimlar** shakllanishida ikki va undan ortiq asoslarning qo‘shilib yangi ma'no hosil qilish usuli nazarda tutiladi. Toponimik masalalarga bag'ishlangan qator ishlarda ham mazkur usul va uning hosilalari qayd qilinib kelinayotganligiga guvoh bo‘lamiz. A.L.Xromov tomonidan so‘z qo‘shilmasi hamda so‘z birikmasi tamoyillari asosida shakllangan toponimik modellar o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilinishi lozimligi ta'kidlanadi<sup>19</sup>. Turkiyzabon aholi istiqomat qiladigan hududlarning aksariyatida bo‘lganidek, Shimoliy Tojikiston toponimlari tizimida ham [asos+asos=toponim] qolipidagi joy nomlari boshqa tur qoliplar asosida yasalgan toponimik birliklarga nisbatan ko‘p miqdorni tashkil etadi. Shimoliy Tojikiston toponimlarining sintaktik usulda yasalgan turga mansub birliklarini hosil qiluvchi derivatsion qolipi tarkibiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin: [turdosh ot+turdosh ot] qolipli *Qayraqqum, Toshqo'rg'on, Isiriqsoy, Toshko'prik*; [atoqli ot+turdosh ot] qolipli *To'raqo'rg'on, Holdorqipchoq, Saidqo'rg'on, Farmonqo'rg'on*; [sifat+ot] qolipli *Yangiqo'rg'on, Qoramozor*; [ot+sifat] qolipli *Yulduzko'k, Jiyanchuqur*; [son+ot] qolipli *Chorqishloq, Uchtepa, Beshkapa*; [ot+fe'l] qolipli *Tillotopar, Bo'riqochar*; [fe'l+ot] qolipli *Qolganqipchoq, Qolgansir*; [ot+ot+ot] qolipli *Madkarim ellikboshi mahallasi, Anjir ota mahallasi*; [sifat+ot+ot] qolipli *Qizilmachit mahallasi*; [son+ot+ot] qolipli *Qirq qoziq oralig'i* (tog' yaylovi) va boshqalar. Shimoliy Tojikiston toponimlari sirasidagi *Biyaso'ydi* (bog', ekin maydoni), *Tuyacho'kdi* (tepalik), *Biykeldi* (daryo), *Chaldivoldi* (qishloq), *Xo'ja saroy topdi* (qabriston) kabi joy nomlarini ham toponimik yasalishning alohida bir turi sifatida qarash mumkin.

Ta'kidlanganidek, "geografik nomlar majmuining asrlar davomida boyib, takomillashib borishini ta'minlovchi manbalardan biri – nomlarning bir-biriga o‘tishi hodisasi sanaladi. Bu xususiyat har qanday hududiy toponimiyaga va barcha tildagi geografik nomlarga xos. Joy nomlarining har bir guruhi (oykonimlar, gidronimlar, oronimlar va boshqalar) o‘z ichida va o‘zaro bir-biriga o‘tishi mumkin"<sup>20</sup>. A.V.Superanskaya atoqli otlarning shu kabi ko‘chirilishiga nisbatan onomastik konversiya<sup>21</sup> terminini qo‘llagan edi. Onomastik konversiya atoqli otning shunchaki ko‘chishidan iborat emas, balki ma'no va vazifa nuqtai nazaridan yangicha mazmun kasb etishidir. Konversiya – biror lug'aviy asosni so‘z hosil

<sup>19</sup> Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. – Душанбе: Ирфон, 1975. – С. 13.

<sup>20</sup> Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – B. 98.

<sup>21</sup> Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. – М., 1969. – С. 92-93.

qilishning boshqa paradigmasiga o'tkazib, yangi so'z yasash<sup>22</sup>. *Konversiya* termini bilan yonma-yon tarzda *transonimizatsiya* terminining ham faol qo'llanishi kuzatiladi. Yuqorida qayd qilingan konversiya va transonimizatsiya usuli bilan bog'liq yondashuv, tahlil va tasniflarga asoslangan holda Shimoliy Tojikiston toponimlarining ushbu hodisalarga munosabati quyidagicha tasniflanadi: *etnonimlar* ko'chishidan *Qarapchi* (qishloq), *Qipchoq* (qishloq); *oronim* ko'chishidan *Kamar* (qishloq), *Chuqur* (mahalla), *Balandlik* (guzar); *antroponim* ko'chishidan *Xoja* (guzar), *Xasan og'a* (adir), *G'oyib bobo* (qabriston); *gidronim* ko'chishidan *Taxtabuloq* (darvoza), *Sho'rbuloq* (yaylov), *Qorabuloq* (tog' yaylovi); *fitonim* ko'chishidan *Qayrag'och* (qabriston), *Yantoq* (karvonsaroy), *Do'lona* (qishloq); *zoonim* ko'chishidan *Olabaytal* (guzar), *Tulki* (mahalla) toponimlari hosil qilingan.

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limi "**Shimoliy Tojikiston toponimlarining morfemik tarkibida topoformant va indikatorlarning o'rni**" deb nomlanadi. Shimoliy Tojikiston toponimlarining morfemik tarkibi turlicha shakllangan. Toponimlarning tasnifi doirasida toponimlar tarkibiga ko'ra ham tasniflanganligi kuzatiladi. Xususan: a) apellyativ nomlar; b) formantli nomlar; v) indikatorli nomlar<sup>23</sup>. Shu va shu kabi yondashuv va tasniflarga asoslangan holda tadqiq obyektimizdagi toponimik birliklarni ham tarkibiga ko'ra tekshirish, tasniflash, tavsiflash hudud toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlarini obyektiv baholashga xizmat qiladi. Shimoliy Tojikiston toponimlarining topoformant va indikatorlarga munosabatini tekshirish, ularning turi, ishtiroki, o'rni va vazifasini aniq, xolis tavsiflash maqsadida kuzatuvimizdagi toponimlar topoformant va indikatorlarning ishtiroki holatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratilib tavsiflanishi lozim deb hisoblaymiz: apellyativ asosli toponimlar, formantli toponimlar va indikatorli toponimlar.

Apellyativ asosli toponimik birliklar sifatida morfemik tarkibi bir lug'aviy birlikdan tashkil topgan joy nomlarini qayd qilish maqsadga muvofiq. Shimoliy Tojikiston hududi toponimlari sirasidagi apellyativ asosli toponimlarni tarkibiy asoslari jihatidan quyidagicha tasniflash lozim:

- 1) ot apellyativ asosli toponimlar: *Asht, Matcho, Xo'jand*;
- 2) sifat apellyativ asosli toponimlar: *Past, Tentak, O'rta, Boy, Devona, Yangi, Ingichka, Oq* kabi.

Qayd qilinganlardan kuzatiladiki, apellyativ asosli toponimlar turli obyektning nomi sifatida ishtirok etadi, ularning asosi ot va sifat turkumiga kiruvchi so'zlardan tarkib topgan. Tarkibida yasovchi qo'shimchalar mavjud bo'lgan toponimik birliklar formantli toponimlardir.

Tadqiq obyektimiz bo'lgan Shimoliy Tojikiston toponimlari tarkibida *xona, obod, kent* komponentlari ham faol ishtirok etganligi kuzatiladi: *xona* komponentli *Tulkixona, Gulxona, Kaptarxona*; *obod* komponentli *Zafarobod, Xonobod*. *Kent, kat* komponentli *Kurkat, Dahkat, Surkat, Varkent, Penjikent, Sho'rkent* kabi.

<sup>22</sup> Ганиев Т. Конверсия в татарском языке. – Казань, 1985. – С. 6.

<sup>23</sup> Назаров К., Эназаров Т. Жой номларини йиғиш сўроқлиги. – Тошкент: Университет, 1995. – Б. 19-24.

"O'zbekcha toponimlarda geografik atama (indikator, nomenklatura atama, turdosh so'z) toponim oxirida, aniqlovchi esa so'z boshida keladi"<sup>24</sup>.

Toponimshunos S.Qorayev orooykonimlar tarkibida relief shakllarini ifodalovchi *adir, bel, dara, dahana, do'ng, jar, kamar, ko'tal, tepa, tosh, tog', qir, qum* kabi birliklarni indikator sifatida, bular sirasidagi tepa atamasining qo'llanish miqdorini "rekord" darajada deb qayd qiladi<sup>25</sup>. Tadqiqotimiz obyektidagi toponimlar tarkibida ham tepa indikatorini eng ko'p ishtirok etuvchi toponimik termin, uning 74 o'rinda joy nomi sifatida qatnashganligi kuzatiladi. Shimoliy Tojikiston toponimlarini morfemik tarkibidagi indikatorlariga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin: 1) *soy* indikatorli *Ashtsoy, Kunjaksoy, Isfarasoy*; 2) *dasht* indikatorli *Qizili dashti, Oqtosh dashti, Bo'tako'z dashti*; 3) *tepa* indikatorli *Taltepa, Mug'tepa, Qo'rg'ontepa*; 4) *buloq* indikatorli *Qo'tirbuloq, Kattabuloq, Ko'rbuloq, Gumbuloq, Sho'rbuloq*; 5) *qo'rg'on* indikatorli *Qo'shqo'rg'on, Saidqo'rg'on, Farmonqo'rg'on*; 6) *mozor* indikatorli *Langarmozor, Qoramozor*; 7) *tosh* indikatorli *Qoratosh, Oqtosh, Qoqtosh, Ko'ktosh*; 8) *mahalla* indikatorli *Madrasa mahallasi, Toshloq mahalla*; 9) *guzar* indikatorli *Boyguzar, Yuqoriguzar, Toshguzar*; 10) *quduq* indikatorli *Oqqquduq, Sho'rqquduq, Qirqquduq*; 11) *ariq* indikatorli *Oqariq, Yangiariq, Osiyoariq*; 12) *tog'* indikatorli *Mo'g'ul tog', Munglik tog', Qurama tog'*; 13) *machit* indikatorli *Oqmachit, Qo'shmachit, Qo'rg'onmachit*; 14) *qishloq* indikatorli *Yangiqishloq, Sho'rqishloq, O'zbekqishloq*; 15) *jar* indikatorli *Egrijar, Bo'rijar, Oqjar*; 16) *bog'* indikatorli *Chorbog', Uchbog', Yakkabog'* kabi toponimlar shunday yo'l bilan hosil qilingan. Tadqiq obyektimizdagi toponimlar tarkibida indikator sifatida qayd qilingan birliklarning toponimlar tarkibida ishtirok etish darajasi turlicha, ularning ishtirok etish miqdorini raqamlarda quyidagicha ko'rsatish mumkin: qishloq – 13, guzar – 3, mahalla – 14, ko'cha – 4, gumbaz – 2, masjid – 9, mozor – 12, ota (qabriston) – 10, bobo(qabriston) – 10, qo'rg'on – 18, ko'prik – 2, qo'ton – 10, bog' – 4, tepa – 74, tosh – 5, tog' – 8, qir – 3, tovoq – 2, kamar – 3, dovon – 2, oshuv – 1, bel – 1, qo'l – 1, bo'g'iz – 1, bo'yin – 1, lab – 1, qum – 4, yo'l – 4, qiya – 2, maydon – 1, dara – 3, tangi – 2, yaylov – 3, kent – 4, kat – 4, ravot – 1, dasht – 6, soy – 25, jar – 6, suv(Su) – 3, chuqur – 2, buloq – 19, ariq – 16.

Qayd qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, indikatorlarning toponimlar tarkibidagi ishtirok etish, ya'ni qo'llanish miqdori har xil, qaysidir indikator faol bo'lsa, ayrimlari sanoqli miqdorda joy nomlari tarkibida ishtirok etadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy-etimologik xususiyatlari**" deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli hudud toponimlarining tarixiy-geografik xususiyatlari tahliliga bag'ishlangan. Har bir hududning o'z tarixiy toponimlari bo'lgani kabi, O'rta Osiyo, shu jumladan, Shimoliy Tojikiston ham o'ziga xos tarixiy toponimlar tizimiga egaki, bular shu tizimni o'rganishda muhim va ishonchli tarixiy ilmiy manba vazifasini o'taydi. Toponimlarda hududlarda sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar,

<sup>24</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 26.

<sup>25</sup> Qorayev S. Kўрсатилган асар. – Б. 53.

davr madaniyati, zamon ma'naviyati va mafkurasi, nom qo'yuvchilarning dunyoqarashi o'z ifodasini topadi. Toponimlar uzoq o'tmishda paydo bo'lgan, ularni yaratgan xalqlar tarix sahnasidan ketgan, nomga asos bo'lgan so'zlar muomaladan chiqqan yoki fonetik jihatdan tamoman o'zgarib tushunarsiz bo'lib qolgan bo'lishi mumkin. Lug'aviy birliklarning tarixiy-etimologik xususiyatlari so'z birikmasi onomastikaga oid atama sifatida ikki lisoniy hodisa va jarayonga nisbatan qo'llanadi: a) qaysi sohaga mansub bo'lishidan qat'i nazar, lug'aviy birliklarning o'z va o'zlashgan qatlamga xos xususiyatlarini aniqlash va sharhlash; b) qaysi sohaga mansub bo'lishidan qat'i nazar, lug'aviy birliklarning ifoda plani bilan bog'liq diaxron va sinxron aspektda fonetik, morfem shakllanishi va ular anglatgan ma'nolarni aniqlash hamda sharhlash.

Hozir Shimoliy Tojikiston deb nomlanayotgan hududda qadimdan turli millat vakillari yashab kelmoqda. Ular o'zlari yashayotgan joyni, uning reliefi, geografik o'rni, tabiati, iqlimi, etnik urf-odatlarini hamda ularning xususiyatlariga asoslanib nomlaganlar, ayrim hollarda esa, o'z urug' nomlari bilan ataganlar. Xususan, *Istaravshan, Shahrison, Panjakent, Kurkat, Shavkat, Langar, Qahqaha, G'onchi, G'azanterak, lakat, Isfana, Rostrovut, Kajrovut* va boshqa shu kabi bir qator toponimlarning lisoniy shakllanishida ular atagan tabiiy joylarning turli xususiyatlari asos qilib olingan. Istalgan geografik obyektga oddiy va murakkab tarkibli toponimlar mavjudki, bu toponimiya tizimining ifoda planiga xos xususiyat. Har bir tilning toponimiya tizimida ularning ifoda planiga mansub nomlar xarakteriga ko'ra ikki xil bo'ladi: a) chin ma'nodagi tarixiy toponimlar; b) ijod qilingan, ya'ni o'ylab topilgan (vidumannie: A.V.Superanskaya) toponimlar. Ularni mazmun planlariga ko'ra o'zaro farqlash qiyin.

Chin ma'nodagi rasmiy (tarixiy) toponimlarning o'ylab topilgan, ya'ni ijod qilingan toponimlardan farqi shundaki, ularning birinchisi ishonarli tarixiy manbalarda alohida qayd etilgan bo'ladi<sup>26</sup>. Toponimlar tizimining ifoda planiga xos bu ikki farqli xususiyat Shimoliy Tojikiston joy nomlari va ularning shakllanish asoslari uchun ham aynan tegishlidir. Masalan, chin ma'nodagi tarixiy Ustrushana toponimi haqidagi dastlabki ma'lumot Xitoy hukmdor sulolalari davriga xos – Tan va Sui solnomalarida uchraydi. Shimoliy Vey va Beyshi solnomalarining 97-bobida *Ustrushana* toponimi xitoycha *Suduyshana* so'zidan kelib chiqqanligi qayd qilingan<sup>27</sup>. O'rta asr arab va fors mualliflarining asarlarida ham Ustrushana toponimi *Ustrushana, Ushrusana, Osrushana, Osrusha, Surushana* kabi turli lisoniy shakllarda uchraydi<sup>28</sup>. Keyinchalik bu nom Suy sulolasi solnomalarida (581-618) – Suyshu, Pay Szyuy (605-606) va Tang sulolasi tarixida (618-907) – Tangshu yozuvlarida sistemali ravishda topilgan. Tang sulolasi solnomalariga ko'ra, *Ustrushana* Sharqiy Sao davlati deb ataladi; bu yerda

<sup>26</sup> Суперанская А.В. Что такое топонимика. – М.: Наука, 1985. – С. 33.

<sup>27</sup> Худуд-ул-олам. АН ТаджССР, Ин-т истории им. Ахмада Дониша, Текст подгот. Н.Касимов. – Душанбе: Дониш, 1983. – 132 с.

<sup>28</sup> Кушакевич А. Очерки Ходжентского уезда. Туркестанские ведомости. – 1872. – № 14.

*Shuoydushana, Suduyshana, Szebuszyuyna* (Szebudana), *Sudushina*<sup>29</sup> nomlari bilan ham yuritilgan.

Szebudana matnlarda Sharqiy Sao – Dun Saoning yana bir nomi sifatida xato qayd etilgan. Xuddi shu rivoyatda *Ustrushan Dulisena* sifatida berilgan. E.Shavann bu *Sudulisena* transkripsiyasining qisqartirilgan shakli ekanligini to'g'ri ta'kidlaydi<sup>30</sup>. Shunga ko'ra, V.V.Bartold to'rtta variantni beradi va bu variant Xitoy yozuvlarida ham mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Bular quyidagilar: *Osrushana, Osrushna, Ustrushana, Sutrushana* va eng qadimgi variant *Sutrushana*<sup>31</sup>. Tang sulolasi vakillari Ustrushana davlatiga Layvey deb yangi nom beradilar, bu xitoycha so'z bo'lib, "hokimiyatning qudratini anglagan holda itoat qilish"<sup>32</sup> degan ma'noni anglatadi. VII asrda yashagan Xitoy sayyohi Syuan Szyan viloyat nomini Sutulisena shaklida beradi. Uning zamondoshi Xoy Chao esa "Sao" deb nomlangan viloyat bor degan ma'lumot qoldirgan<sup>33</sup>.

Xitoy manbalarida keltirilgan "Suduyshana" va arab geograflarida "Ustrushana" aslida bir toponim. A.M.Mandelstam yozganidek, "... bu, ehtimol, ikki nomning fonetik o'zgarishga uchrashi bilan bog'liqdir"<sup>34</sup>.

*Bunjikat* toponimining *kat* komponenti qadimgi so'g'd tiliga borib taqaladi. Katning "kata", "kand", "kant" kabi formalari "shahar", "shaharcha" degan ma'nolarni anglatadi. Qadimgi hind tilida bu atama "kantha" shaklida qo'llanib, *devor, shahar* kabi ma'nolarni anglatgan. Xorazmda ham kat shahar ma'nosini anglatadi. Keyingi vaqtlarda kat eroniy tillardan turkiy tillarga *kant, kent* shaklida o'tadi. *Bunjikat* toponimidagi *bunj, nunj* topoasosining to'g'riroq shakli panj bo'lib, "besh" degan ma'noni anglatadi.

*Langar* qadimgi tarixiy atama sifatida O'rta Osiyoning Janubiy qismidagi geografik nom sifatida keng tarqalgan, ayniqsa, O'zbekiston, Tojikiston, Afg'oniston Respublikalarida ko'p uchraydi. *Langar* so'zining ma'nosi to'g'risida ko'plab fikr mavjud. Odatda *langar* nomi mahalliy ziyoratgoh bo'lgan yoki uning yonida joylashgan qishloqlarga berilgan. O.I.Smironovning fikricha, *langar* atamasi o'z mazmuniga ko'ra musulmon qabristonlaridagi maqbara – xonaqa atamasiga teng<sup>35</sup>.

Tarixiy manbalarda G'onchi ham Ustrushana hududida joylashgan qadimiy joylardan biri tarzida qayd qilingan. Shahar aholisining fikriga ko'ra, bu nom *g'unchi* yoki *xonchi* so'zidan kelib chiqqan, "mehmondo'st odamlar uyi" degan ma'noni anglatadi. S.K.Qorayev "G'onchi" sarlavhali maqolasida bu atamani

<sup>29</sup> Беруни Абу Райхан. Канон Масъуда. Избранные труды. Т. V. – Ташкент, 1957; Он же. Осор-ул-бокия. – Душанбе, 1991.

<sup>30</sup> Абдураззак Самарканди. Матла-ус-саъдайн ва маджма-ул-бахрайн. – Ташкент, 1969.

<sup>31</sup> Макшеев А.И. Географические, этнографические и этнографические материалы о Туркестанском крае. – СПб., 1868.

<sup>32</sup> Костенко В. Туркестанский край. – СПб., 1880.

<sup>33</sup> Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Т. I. – Ташкент, 1890.

<sup>34</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т.I. – М., 1963; Он же. К истории орошения Туркестана. Соч. Т.III. – М., 1965; Он же. Несколько слов об арийской культуре // Наследие предков. – 2006. – №9.

<sup>35</sup> Смирнова О.И. Археологические разведки в Уструшане в 1950 г. // Материалы и исследования по археологии СССР. – 1953. – №37. – С. 190.

"*qo'ychi*" – choʻpon deb tahlil qilgan<sup>36</sup>. A.L.Troitskayaning fikricha, *g'onchi* turkiy soʻz, *lavozim, unvon* ma'nosini bildiradi. Qadimgi davrlarda bunday mavqega ega boʻlgan shaxs saroyga goʻsht etkazib berish bilan shugʻullangan<sup>37</sup>. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida qirqdan ortiq qabila va elatning nomlari berilgan. Ular orasida *g'onchi, hazora g'onchi* ham qayd qilingan.

"Gidronimlar va boshqa geografik obyekt nomlarining tarixiy talqini" deb nomlangan faslda toponimika fan tarmogʻi sifatida nafaqat shahar va qishloq, balki koʻplab geografik obyektlar, shu jumladan, daryo, togʻ, soy, ariq, sugʻorish tizimlari, koʻl, tepalik nomlarining oʻrganilishi va bu nomlar tarixiy asarlarda qanday berilgani, ilmiy manbalar asosida tahlilga tortilgan. Jumladan, Shimoliy Tojikiston hududidan oqib oʻtuvchi Sirdaryo<sup>38</sup> oʻrta asrlarda *Ashard* yoki *Hshard* (Xasart) nomi bilan, Xitoy manbalarida esa Yo-sha (*Yok-shat*) shaklida tilga olingan. Yaxart nomining oʻrta asrdagi varianti *Hashart* (*Xasart*) koʻrinishida uchrasa, bu nomning qadimgi eroncha koʻrinishi "yakshart" (jaxsartd), "haqiqiy marvarid", jaxsa-harta – "olmos daryosi" yoki jaxsa-rta – "oqar daryo" degan ma'noni anglatadi. Qadimgi turkiychada bu daryo *Enche* – *okuz* deb atalgan, "marvarid daryosi" degan ma'noni anglatadi<sup>39</sup>. Sirdaryoni *Qang' daryosi* yoki *Qang'ur* deb ham atashgan, bu "qang", "qang'li" etnonimi bilan bogʻliq. Arablar Sirdaryoni *Sayxun*, forslar Rudi *Sayxan* yoki *Gulzariyun* deb ham atashgan. Yoxan – "daryo" va sioba – "oqayotgan daryo". "Burhoni kote" lugʻatida muallif shunday yozadi: "Sayxun-Xoʻjand yaqinidagi Transoksianadagi daryo nomi"<sup>40</sup>.

Zarafshon daryosi Oʻrta asr arab manbalarida *Sogda daryosi* tarzida berilgan. Ushbu daryo nomi xususida V.V.Bartold quyidagilarni yozadi: "...maydoni yaqin-yaqingacha Turkiston siyosiy va madaniy hayotining deyarli markazi boʻlib qolgan, shuningdek, uning madaniyatiga daxldor boʻlgan daryo arab manbalarida alohida nomga ega emas. Islomiyatgacha boʻlgan *Namik* nomi arab manbalarida deyarli uchramaydi. Hozirgi Zarafshon nomi XVIII asrgacha mahalliy adabiyotda mavjud emas"<sup>41</sup>. Xitoy manbalarida daryoning nomi – Nami deb koʻrsatilgan. Xitoy yilnomalaridagi Zarafshonning qadimgi Ariyan kabi koʻrinishi – *Namik* soʻzini anglatgan. *Namik* soʻzi "*hurmat qilish, sajda qilish*" degan ma'noni anglatadi. Oʻrta asr arab yozma manbalarida daryo Rudi *So'g'd* yoki *So'g'd suvi* deb atalgan. Qadimgi yunoncha *Politimet* nomi *Namik* soʻziga yaqin ma'nodagi soʻz, "juda hurmatli" degan ma'noni anglatadi.

Qadimgi manbalarda uchraydigan *Shahristonsoy* keyingi davrlarda kichik qishloqlarning asosiy sugʻorish manbai boʻlganligi manbalarda qayd qilinadi. Hajman katta boʻlganligi tufayli Kattasoy suv ombori, Kengkulsoy, Kunjaksoy,

<sup>36</sup> Қораев С.К. Гончи // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1974. – №4. – Б. 17.

<sup>37</sup> Троицкая А.Л. Ганчи, ганчибаши в Кокандском ханстве // Тюркологические исследования. – М.–Л., 1963. – С. 27.

<sup>38</sup> Лившиц В.А. Древнее название Сырдарьи // Вестник древней истории. – 2003. – №1. – С. 10.

<sup>39</sup> Горбунова Н.Г. Фергана по сведениям античных авторов // История и культура народов Средней Азии. – М., 1976. – С. 27; Кляшторный С.Г. История Центральной Азии и памятники рунического письма/ – СПб.; Филологический факультет. – СПбГУ, 2003. – 530 с.

<sup>40</sup> Яйленко В.П. Палеоазиаты и этническая история древней Средней Азии.// Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана. (ТД). М.,1988. – С. 133.

<sup>41</sup> Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. Соч. Т.III. – М., 1965. – С. 185.

Dalyonsoy kabi kichik daryolar suvidan oziqlanadi. Turkiston tizmasining muzliklaridan boshlanadigan keyingi daryo *Oqsu* deb ataladi. *Oqu*, *Oqsu* soʻzlari "oq, toza suv" degan ma'noni anglatadi.

"Shimoliy Tojikiston toponimik tizimiga mansub ayrim joy nomlarining etimologiyasi" deb nomlangan uchinchi boʻlimda Shimoliy Tojikiston toponimlaridan ba'zilarining dastlabki paydo boʻlish shakllari va ularning ilk ma'nolari haqida ma'lumot beriladi. Soʻzlarning paydo boʻlishi, ilk shakllari va ma'nolari etimologik tahlil tufayli aniqlanadi. Etimologik tahlil til amalida eng mas'uliyatli va eng murakkab jarayon. Bu jarayon tilshunos-mutaxassisdan sohaviy bilim va atroflicha kasbiy ma'lumot va tajribaga ega boʻlishini talab qiladi.

Toponim tavsifidagi lug'aviy birliklar (onimlar) tarixiy etimologik jihatdan uch guruhga ajraladi: a) fonetik va morfem qurilishi diaxron jihatdan aniq tasavvur etiladigan, chin ma'nodagi etimologik tahlilga muhtoj boʻlmagan toponimlar; b) fonetik va morfem tarkibi sinxron jihatdan sezilsa-da, diaxron jihatdan qisman xiralashgan toponimlar; v) fonetik va morfem qurilishi mutlaqo unutilgan, to'la ma'noda diaxron birlik sifatidagi toponimlar.

Yuqoridagilardan ayon boʻladiki, keltirilgan guruhlardan keyingi ikkitasi, ayniqsa, uchinchisi fan uchun muhim, negaki bu jarayonda toponimlarning ham ifoda, ham mazmun planiga xos diaxron va sinxron jihatlari aniqlanadi. Shimoliy Tojikistonning fors-tojik tiliga mansub deb rasmiylashgan ayrim toponimlari aslida shu tilga mansub boʻlmay chiqadi. Masalan, *Xoʻjand* toponimi, bizningcha, ana shunday tavsifga ega. Professor A.Berdialiev *Xoʻjand* toponimini tarixiy shaharlardan biri boʻlgan *Qoʻqon* toponimi bir xil lisoniy xususiyatga ega deb hisoblaydi. Chunki *Qoʻqon* toponimining qoʻ qismi *shaboda*, *shamol*, *salqin* ma'nolarini bildiruvchi *hu* taqlid soʻzidan ekanligini professor A.N.Kononov ham qayd qilgan. Darhaqiqat, *Qoʻqon* Oʻzbekistonning sershamol shaharlaridan biri. Hu ning *shamol*, *salqin* ma'nosida ishlatilganini kuzatish mumkin. Masalan, yosh bolani koʻtarib, tashqariga chiqsak, havo salqin, shamolli yoki shabadali boʻlsa, uni huhulab bag'rimizga yashiramiz. Muhimi va qizig'i shundaki, shahar ma'nosidagi kent unsuri jan, jand shaklida ham uchraydi. *Xoʻjand* toponimi *jand* unsuri yordamida yasalgan. Yuqoridagilarga asoslanib, toponimning nolisoniy asosi ham *shamolli shahar* degan ma'noga aloqador deb xulosa chiqarish mumkin. Darhaqiqat, *Xoʻjand* shamoli *Qoʻqon* shamolidan kuchli boʻlsa-borki, undan past emas...<sup>42</sup>.

Konibodom tumani hududi bilan bog'liq *Patar* toponimi to'g'risida ham ikki xil qarash mavjud: xalq orasida bu toponim o'zbekcha *Botar* (loylik, botqoqlik bo'lgani uchun), tojikcha *Pohi tar* (botqoqlik, loylikdan oyoqlar ho'l bo'lganligi uchun) degan ma'noni ifodalaydi. Bir toponimning ham *Botar*, ham *Pohi tar* deb atalishi shu toponim joylashgan hududning tabiiy xususiyati bilan bog'liqligini sezish qiyin emas, albatta. *Patar* toponimining har ikki varianti ham biror ilmiy manbada qayd etilmagan, biroq uning *Pohi tar* shaklida tojik tilida paydo bo'lganligi, bizningcha, to'g'ri. Chunki *Botarga* nisbatan *Pohi tarning* *Patar*

<sup>42</sup> Бердиалиев А. Сўзлар оламига саёҳат. – Хўжанд, 2012. – Б. 32.

shaklida lisoniy rasmiylashuvida ishonarli mantiqiy-lisoniy asos bor. *Pohi tar* soʻz birikmasi tarkibidagi ikkinchi boʻgʻin -hi reduktsiyaga uchrab, po...tar shakliga kelgan... *Potar* tarkibining birinchi boʻgʻini tarkibidagi o unlisi esa, ikkinchi boʻgʻin tarkibidagi a unlisiga moyillashgan va a ga aylangan: *pohi tar – po...tar – patar*.

Tadqiqotning toʻrtinchi bobi "**Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy, ilmiy va leksikografik manbalardagi talqini masalasi**" deb nomlanadi. "Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy yozma yodgorliklarda ifodalanishi" nomli faslida toponimlarning tarixiy manbalardagi talqini masalasiga diqqat qaratilgan.

Toponimlar orqali koʻhna tariximiz, ajdodlarimiz qarashlari va qadriyatlarimizdan xabardor boʻlamiz, ularning zamirida oʻz ifodasini topgan xalqimiz tili, adabiyoti, madaniyati, ruhiyatini yanada teranroq anglash imkoniyatiga ega boʻlamiz. Xususan, "Boburnoma" XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston va Hindiston tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir qimmatbaho materialni oʻzida mujassam etgan qomusiy asar. Professor H.Hasanovning taʼkidlashicha, "Boburnoma"da 1000 ga yaqin geografik nom tilga olingan. Oʻrta Osiyoga doir nomlarning koʻpchiligi hamon oʻsha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi: *Xoʻjand, Isfara, Oʻratepa, Badaxshon, Xovos, Oqsuv (Oʻratepa yaqinida), Zomin, Qorategin* va hokazo. Ayrimlari esa shaklan oʻzgargan holda etib kelgan: *Margʻinon – Margʻilon, Rushdon – Rishton, Kandibodom – Konibodom, Masiho – Mascho-Mastchoh* kabilar. Baʼzilari esa butunlay boshqacha nomga oʻz oʻrnini boʻshatib bergan: *Xoʻjand suyi – Sirdaryo, Barokoʻh – Taxi Sulaymon, Darbandi Ohanin – Temir darvoza (dara)* va boshqalar.

Tarixiy yozma manbalardan biri "Hudud-ul-olam" asarida Sarushana (Ushrusana, Ushrushana) – Turkiston va Zarafshon togʻlarida, gʻarbda Nurota togʻlaridan, Sharqda Qurama togʻlarigacha boʻlgan oraliqda joylashgan viloyat nomi ekanligi qayd qilinadi<sup>43</sup>. Ayni paytda Oʻratepa tumanining markazi Istaravshan nomi bilan ataladi. Shuningdek, ushbu asarda *Farkas (Vagat), Gʻazz (Gʻazandarak), Sabat (Eski Savot), Kurkas (Kurkat)* kabi joy nomlari Sarushana hududidagi shaharchalarning nomi ekanligi ham bayon qilingan<sup>44</sup>.

Shuningdek, "Hudud-ul-olam" asarida hozirgi Oʻratepa oʻrnida qayd etilgan qadimiy shahar Navnijkas (baʼzi manbalarda Bunjikas) deb atalgani haqidagi maʼlumotni ham uchramiz. Ushbu asarda hozirgi Panjikent Samarqandga tegishli hudud sifatida tavsiflangan: "Varagsar, Banjikas (Panjikat) – ikkita shaharcha. Samarqandga qarashli, Buxoro daryosi boʻyida joylashgan, suv taqsimlash joyi ana shu Varagsardadir"<sup>45</sup>.

Abdurazzoq Samarqandiyning asarida Oʻratepa, Xoʻjand toponimlari tarixiy voqealarni tafsilotini berish jarayonida ishlatilgan: "Onhazratning (oʻzi esa)

<sup>43</sup> Худуд-ул-олам. АН ТаджССР, Ин-т истории им. Ахмада Дониша. Текст подгот. Н.Касимов. – Душанбе: Дониш, 1983. – С. 24.

<sup>44</sup> Худуд-ул-олам. Келтирилган манба. – Б. 30.

<sup>45</sup> Худуд-ул-олам. Келтирилган манба. – Б. 13.

O'ratepa yayloqini humoyun manzil qilib oldi"<sup>46</sup>. Manbalardan ko'rinadiki, toponimlar tarixiy davr mahsuli, ijtimoiy-siyosiy voqeliklarning darakchisi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etib keladi. Shuningdek, "Abdullanoma" asarida ham Shimoliy Tojikiston toponimiyasida alohida o'rin egallagan *Xo'jand, O'ratepa, Shahrison* kabi joy nomlari tilga olinadi, bu esa ularning tarixiylik xususiyatini ko'rsatib turadi. Xususan: "Sirdaryo(ning) bo'yida, Xo'jand yaqinida hazrat eshonning, unga Tangrining rahmat va roziligi bo'lsin, birodarlar: Sulton Ahmad Mirzo, Umarshayx Mirzo va Mahmud Mirzo o'rtasida bo'lgan ixtiloflarni bartaraf qilish qissasi yuz berdi"<sup>47</sup>. "Bu voqea yuz bergandan so'ng, Iskandar martabali xon arkon davlatlarning iltimosiga ko'ra, qaytish jilovini tortib O'ratepa qishloqlari ichidan mashhuri bo'lgan Shahrisonga yurdi"<sup>48</sup>. Qaydlardan ma'lum bo'ladi, Shahrison deb yuritilgan joy o'sha davrda O'ratepa shahri tarkibida bo'lgan qishloq bo'lgan, bu toponim hozirda Shimoliy Tojikiston hududidagi tumanning nomi sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu geografik obyekt X asrda *Panjikent (Bunjikent)* atalgan<sup>49</sup>.

"Shimoliy Tojikiston hududi bilan bog'liq ayrim toponimlarning ilmiy manbalardagi talqini" deb nomlangan faslda hudud toponimlari guruhiga mansub ayrim joy nomlarining ilmiy manbalardagi talqini tahlil qilingan. Hudud toponimiyasi ilmiy jihatdan kam o'rganilgan bo'lsa-da, manbalar mavjud. Jumladan, toponimlarni o'rganish tarixiga oid e'tiborga molik ma'lumotlarni A.L.Xromovning "Tojikiston toponimiyasi va mikrotoponimiyasidan ocherklar" asarida kuzatishimiz mumkin<sup>50</sup>. Unda O'rta Osiyoning toponimik muammolari bilan miloddan oldingi I asrlarda yunon olimi Strabon qiziqqanligi, toponimik ekskurslarni Ibn Xo'rdodbehning (IX asr), keyinchalik Narshaxiy (X asr) va Muqaddasiylarning (X asr) asarlaridan topish mumkinligi, ammo ular xalq etimologiyasiga asoslanganligi qayd qilinadi. Muallif arab geografi Yoqutni O'rta Osiyo va musulmon Sharqining birinchi toponimisti deb hisoblaydi, uning geografik muammolarni tahlil qilish usuli toponimlarni topoformantlarga ajratib tasniflash metodiga yaqin ekanligini ta'kidlaydi<sup>51</sup>. A.L.Xromov O'rta Osiyo substrat toponimlarini o'rganishdagi ba'zi bir yuzakiliklarni, jumladan, *hisor "qal'a"* yoki *aqba "dovon"* atamalarining arabcha toponim deb izohlanishini tanqid qiladi hamda o'z fikrini bu so'zlarning eroniy va turkiy tillarga toponimik vazifani bajargunga qadar to'laqonli leksik birliklar sifatida kirib kelganligi bilan dalillaydi. "U yoki bu toponimning arabiy qatlamga mansubligini isbotlash uchun, – deb yozadi u, – onimizatsiyaning qandaydir boshqa asosda emas, balki aynan arab tili negizida va arab tili grammatikasi qoidalariga ko'ra amalga oshirilganligi haqida mutlaqo ishonchli bilim kerak"<sup>52</sup>.

<sup>46</sup> Абдураззак Самарканди. Матла-ус-саъдайн ва маджма-ул-бахрайн. – Ташкент, 1969.

<sup>47</sup> Хофиз Ганиш Бухорий. Абдуллонома, 1-жилд. – Тошкент, 1966. – Б. 71.

<sup>48</sup> Хофиз Ганиш Бухорий. Келтирилган манба. – Б. 357.

<sup>49</sup> Хофиз Ганиш Бухорий. Келтирилган манба. – Б. 414.

<sup>50</sup> Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. – Душанбе: Ирфон, 1975.

<sup>51</sup> Хромов А.Л. Состояние и задачи топонимических исследований в Таджикистане // Вопросы языкознания. – Москва, 1977. – № 4.

<sup>52</sup> Хромов А.Л. Состояние и задачи топонимических исследований в Таджикистане // Вопросы языкознания. – Москва, 1977. – С. 129.

A.Rozenfeld ham Shimoliy Tojikiston toponimiyasiga o'z munosabatini bildiradi. Xususan, G'onchi tumanida joylashgan Olmabarozi nomli qishloq nomidagi *baroz* so'zining eroniy tillarga tegishli ekanligi, o'zbek tilida "baland joy" ma'nosini ifodalashi, Shimoliy Tojikistonda bu so'zdan yasalgan toponimlar ko'p uchrashi qayd qilingan<sup>53</sup>. Toponimshunos T.Nafasovning lug'atida ham quyidagilar qayd qilinadi: "Buzovut (Chorvoq qishloq) toponimi tarkibida ham shu termin saqlangan. Bu nom so'g'dcha *barz+ovut* komponentlaridan shakllangan. U qadimda turkiy tillarga ham o'zlashgan. Eroniy va turkiy tillarda *burz~borz~barz* "baland, yuqori" variantlarida qo'llangan. *-ovut~-ovat~-ut* – so'g'dcha avat "joy" so'zidan shakllangan"<sup>54</sup>.

Shimoliy Tojikiston toponimiyasida faol toponimlardan biri *Qurama*, u Shahriston tumanidagi Qayirma qishlog'idagi mahalla, guzar hamda Matcho tumanidagi tog' nomi sifatida qayd qilinadi. *Qurama* so'zi turkiy tilga xos, "aralash, turli bo'laklardan tashkil topgan" degan ma'noni anglatadi. Ushbu toponim bevosita Qurama etnonimi bilan bog'liq.

*Metar* – Spitamen tumanidagi qishloq nomi. Turarjoyning nomlanishiga o'tmishda qo'llangan mansab nomlaridan biri – *mehtar* so'zi asos bo'lgan. *Mehtar* tarkibidagi fonetik o'zgarish – h tovushining tushib qolishi natijasida *Metar* shakliga kelib qolgan. Tarixchi A.Juvonmardiyevning yozishicha, *mehtar* so'zi forscha, lug'aviy ma'nosi "buyuk, a'zam, akbar" demakdir. XVI-XIX asrlardagi Farg'ona tarixiga oid hujjatlarda *mehtar* lavozimidagi shaxs xon va vazirlarning nishon va yorliqlarini joylarga etkazuvchi: vazirlarning uy xizmatchisi, goho soliqlarni jamlab, uni kerakli o'rnida sarflovchi vazifasini bajargan<sup>55</sup>.

